IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘QUVCHILAR TARBIYASINI INNOVATSION MEXANIZMLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI VA TENDENSIYALARI

Mamatsaliyeva Muxlisa San'at qizi
Ajinyoz nomidagi NDPI “Pedogika”
kafedrasi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada globallashuv jarayonining ta’lim tizimiga ta’siri, bugungi kunda oliy ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar, globallashuv davrida ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish masalalari va uning tarixiy ahamiyati ochib berilgan. Globallashuv davrida barcha fuqarolarda shakllantirish zarur bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlar hamda tarbiyaviy masalalar ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: globallashuv jarayoni, ta’lim tizimi, global fuqaro, odob-ahloq, ma’naviyat, qadriyat, tarbiya, oliy ta’lim.

Annotation: The article reveals the impact of globalization on the education system, the modern requirements imposed on the higher education system today, and the issues of preserving spiritual and moral values in the era of globalization, as well as its historical significance. It also examines universal human values and educational issues that must be formed in all citizens during the era of globalization.
Keywords: globalization process, education system, global citizen, ethics, morality, spirituality, values, upbringing, higher education.

Аннотация: В статье раскрывается влияние процесса глобализации на систему образования, современные требования, предъявляемые к системе высшего образования, а также вопросы сохранения духовных и нравственных ценностей в эпоху глобализации и их историческое значение. Также рассматриваются общечеловеческие ценности и воспитательные вопросы, которые необходимо формировать у всех граждан в условиях глобализации.
Ключевые слова: процесс глобализации, система образования, глобальный гражданин, этика, нравственность, духовность, ценности, воспитание, высшее образование.

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha jabhalariga, xususan, ta’lim tizimi va tarbiya jarayonlariga chuqur va keng ko‘lamda ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon miqyosida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va axborot texnologiyalari taraqqiyoti natijasida jamiyatlar o‘zaro integratsiyalashib, bilimlar almashinuvi jadallashib bormoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda mustahkam ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni raqobatbardosh kadrlar etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan konsepsiyalarda ham yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviy immunitetini kuchaytirish va zamonaviy bilimlarni egallash orqali global raqobatga kirisha oladigan avlodni shakllantirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Davlat

rahbari tomonidan ta’kidlanayotganidek, yoshlar tarbiyasi va ularning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shu bois ta’lim tizimida innovatsion mexanizmlarni joriy etish orqali o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ma’naviy-axloqiy qarashlarini ham rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida o‘quvchilarning tarbiyasini innovatsion mexanizmlar asosida rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagogika fanining eng muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Chunki zamonaviy axborot oqimi, internet makoni va global madaniy ta’sirlar yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘qituvchilardan yangi pedagogik texnologiyalarni, interfaol metodlarni hamda axborot-kommunikatsiya vositalarini samarali qo‘llashni talab etadi.

Shuningdek, globallashuv jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarda vatanparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy yetuklik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish orqali ularni global jamiyatning faol va ongli a’zolari sifatida tarbiyalash mumkin. Bu esa ta’lim tizimida innovatsion mexanizmlar asosida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Globallashuv sharoitida o‘quvchilar tarbiyasini innovatsion mexanizmlar asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki jamiyatning ma’naviy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib, an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion mexanizmlarga asoslangan pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning nafaqat bilim olish darajasini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari va interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Innovatsion mexanizmlar asosida tarbiya jarayonini tashkil etish o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, mas’uliyat, jamoada ishlash ko‘nikmalari hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga imkon beradi. Xususan, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, “flipped classroom” (teskari sinf) modeli va hamkorlikda o‘qitish kabi zamonaviy yondashuvlar o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Globallashuv davrida axborot oqimining haddan tashqari ko‘payishi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, internet va raqamli muhit yoshlar ongiga turli madaniy ta’sirlarni olib kirayotgani sababli milliy qadriyatlar va ma’naviy immunitetni mustahkamlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu jarayonda oila, maktab va jamiyat hamkorligi muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham innovatsion islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda raqamli ta’lim resurslarini kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu esa o‘quvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi va uning ajralmas atributi bo‘lgan fan ham globallashuvda muhim o‘rin egallab bormoqda. Oliy ta’lim global tarmoqning bir qismiga aylanib qolishi o‘z navbatida o‘zining territoriyasida faoliyat yuritadigan va markaziy o‘rinni tashkil etadigan an’anaviy universitetlarning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. An’anaviy ta’lim va an’anaviy oliy o‘quv yurtlari bugungi dunyodagi mavjud qashshoqlik va boylik, ekologik muammolar, xalqaro jinoyatchilik, kishilarning birbiridan begonalashuvi kabi global muammolarni yakka o‘zi hal qila olmaydi. “E.Giddensning fikricha, Xitoyda ta’lim darajasini zamon talablariga yetkazish uchun, ellik yil yalpi ishlab chiqarishning 2%ini sarflash lozim ekan, bu xisob yalpi ishlab chiqarishning

o‘sishi har yil o‘rta xisobda 10% dan oshib borayotgan mamlakat haqida boryapti. Bu xisob esa bugungi rivojlangan mamlakatlar simsiz axborot tizimini o‘rnatish orqaligina jahon ta’lim tizimini rivojlantirish mumkinligini isbotlaydi.” Globallashuv tufayli insoniyat faoliyatida, uning turmush tarzida va avvallari turli-tuman bo‘lgan uning madaniyatida yangi, jahon standartlari paydo bo‘ldi.

“Zamonaviy insoniyat millatidan qat’iy nazar bolaligidan bir hil o‘quvchilar televizion dasturlarini, o‘smirlik va yoshlik davrida bir hil musiqiy kliplarni, o‘rta yoshda esa bir hil seriallarni tomosha qiladi. Odamlar bir hil yangiliklarni o‘xshash sharxlar bilan tinglaydilar, kiyim-kechakda bir hil urfga amal qilib kiyinadilar, bir hil fast-fudlar bilan ovqatlanadilar, bir hil tilda gapirishga xarakat qiladilar, bir hil jixozlangan ofislarda ishlaydilar. Buning oqibatida yangi turkum “global fuqaro” ya’ni qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari bir hil odamlar paydo bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy, texnologik va ilmiy taraqqiyot jamiyat ma’naviy taraqqiyotidan ko‘ra tezlashib ketdi. Internetdan foydalanayotgan “global fuqaro”ning yashashdan maqsadi, zamonaviy avtomobil, yaxshi uy-joy, qimmatbaxo jixozlar va dunyoni sayohat qilishdan iborat.

Avvallari bolalikdan inson ongiga singdiriladigan mehroqibat, odob-ahloq, yaxshilik, go‘zallik, adabiyot, san’at, diniy ahloq bergan ma’naviy boyliklarni global madaniyat bera oladimi, zamonaviy odam jamiyatdagi ma’naviy talablarga javob bera oladimi? Bugungi oliy ta’lim ma’naviy boyliklarni saqlab qolish va targ‘ib qilishni jamiyat miqyosida ishlab chiqishga xarakat qilishi kerak. Mazkur muammo O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq, mamlakatimiz hayoti uchun eng muhim masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi. I.Karimovning deyarli barcha asarlarida ma’naviyatni saqlab qolish va rivojlantirish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Mazkur sohadagi ishlarni boshqarish va amalga oshirish bo‘yicha bir qancha tashkilot va muassasalar tuzildi va ular faoliyat olib bormoqda. “Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qayerdaki beparvolik va loqaydlik xukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zbo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur xukumron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.”

Bugungi ming yillik talablarining eng muhimlaridan biri, olimlarning fikriga ko‘ra, zamon talablari asosida jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilovchi inson hayotining maqsadi va mazmuni masalasini ishlab chiqish va yaratish lozim. Hozirgi tez o‘zgaruvchan hayotda bu muammoni yagona yechimi barcha xalqlarda mavjud bo‘lgan milliy an’analar va qadriyatlar asosida insonni tarbiyalashdir. Faqat shu orqaligina globallashuv davrida inson mavjudligini saqlab qolish mumkin. Ayni paytda, globallashuv davr, barcha fuqarolarida shakllantirish zarur bo‘lgan, umuminsoniy qadriyatlar ham mavjud bo‘lib bulardan birinchisi rostgo‘ylikdir, aynan rostgo‘ylik o‘zaro aloqaning asosini tashkil etishi lozim. Rostgo‘ylik jamiyatdagi barcha aloqalarni biriktiruvchi asos, poydevor bo‘lib xizmat qilishi zarur. Globallashuv davrida butun yer kurrasi aholisi, ayniqsa qashshoqlikda yashayotgan yoki tabiiy ofat tufayli zarar ko‘rgan xalqlar uchun zarur bo‘lgan, mexr-muruvvat va sahiylikdir. Globallashuvning raqobat muhitida yashash uchun zarur bo‘lgan ma’naviy fazilat mehnatsevarlikdir. Hozirgi davr ishlab chiqarishidagi raqobatiga birdosh berish uchun murakkab vaziyatlarda, turli qarama-qarshiliklarni yengib o‘tish va o‘zining fikrlarini o‘tkazish uchun katta mashaqqatli mexnat talab qilinadi. Hoziri davrda biror bir korxonaning rivojlanishi, raqobatbardoshligi va umuman yutuqlariga sabab bo‘luvchi yana bir umuminsoniy fazilat u yerda faoliyat yuritayotgan xodimlarga, do‘stlarga va umuman insonlarga nisbatan adolatli bo‘lishdir. Bu fazilatlar maktabgacha va maktab yoshidagi ta’limdan shakllantirib borilishi shart. Ko‘pincha, o‘quvchilar tarbiyasining eng faol davri bo‘lgan uch-to‘rt yoshligi ularga e’tiborsizlik bilan o‘tkazib yuboriladi, bunga ota-onalarning boalarni kichik yoshda qanday tarbiyalash zarurligini bilmasligi ham sabab bo‘ladi.

“Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatdik, inson o‘z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi.”

Hozirgi davrda avvalgiga nisbatan, bu yoshda o‘quvchilarning axborotni qabul qilish, o‘zlashtirish faoliyati tezlashgan bo‘lib asosiy amaliy fanlar to‘g‘risida tushunchalar berish mumkin. Maktabgacha ta’limning tayyorlov guruhlarida va kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni ko‘pincha o‘rgatilinayotgan narsaga qiziqmasligini guvohi bo‘lamiz. Bizning fikrimizcha, bu yoshdagi o‘quvchilarga o‘qishni o‘rgatishdan ko‘ra, qanday qilib o‘qish yo‘llarni uqdirish lozim. O’quvchilarda o‘qish qobiliyati va tafakkurini shakllantirish, ularga berilgan materialni eslab qolishdan ko‘ra ko‘proq samara beradi. Umumiy ta’limda globallashuvning sivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni kuchayishini nazarda tutgan holda, tarix, geografiya va ijtimoiy fanlarni o‘qitishga e’tiborni kuchaytirish zarur. Bu mamlakatlar tarixi, iqtisodiy yo‘nalishlari, ijtimoiy hayoti haqida chuqurroq ma’lumotlar berish orqali o‘quvchilarni boshqa mamlakatlar munosabatini to‘g‘ri shakllantirish mumkin.

Globallashuv davrida oliy ta’lim oldida quyidagi masalalarni hal qilish muammosi turibdi:

1. Oliy ta’limni baynalminallashtirish, ya’ni talabalar va ilmiy xodimlarning almashtirib borish, birgalikda tadqiqot ishlari olib borish, simsiz axborot tizimini o‘rnatish, yetakchi universitetlarga tenglashib borish;
2. Global muammolarni hal qilish bilan birgalikda o‘z milliy taraqqiyotiga oid muammolarni o‘z vaqtida hal qilib borish;
3. Taraqqiy topgan va ilm fan sohasida global yutuqlarga ega davlatlar oliy o‘quv yurtlari bilan doimiy hamkorlikda bo‘lish va bu aloqa natijalariga asoslangan yangiliklar yaratish;
4. Yoshlarga ta’lim jarayonida global bozorning salbiy natijalari bo‘lgan global migratsiya, kriminal iqtisod, global jinoyatlar haqida tushunchalar berib borish, talabalar o‘rtasida bu haqida ilmiy-nazariy konferentsiyalar tashkil etish;
5. Hozirgi davrda xo‘jalik yuritish yoki fermer xo‘jaliklari faqat oziq-ovqat maxsulotlari yetishtirish maqsadida tabiiy o‘simliklar va mikroorganizmlarni yo‘q qilib yubormaslik va shu tariqa tabiatga xalaqit berishlarini oldini olish;
6. Aholining tabiiy resurslar va ayniqsa qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi fermerlarning ekologik bilimlarini oshirib boruvchi, ekotizm ya’ni tabiatni asrash orqali insonni asrab qolishga oid bilimlar turkumini ishlab chiqish;
7. Ta’lim tizimiga ekologiya fanini kiritish, shuningdek, barcha ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida, davlat muassasalarida ekologik ma’rifatni targ‘ib qiluvchi manbalar yaratishdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlar bilan birga murakkab vazifalarni ham yuklamoqda. Innovatsion mexanizmlar asosida o‘quvchilar tarbiyasini rivojlantirish ularning intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlovchi va ma’naviy yetuk shaxslarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli vositalardan samarali foydalanish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu esa o‘quvchilarning global jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va ma’naviy yuksalishiga ham muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Howard M. America and the World. St. Louis: Washington University. The Annual Lewin Lecture, 5 April 1984. – P.6.
2. Jivotovskaya I.G. Globalizatsiya i obrazovanie: institutsionalniy i ekonomicheskiy aspekti. Globalizatsiya i obrazovanie. Sb. obzorov. Otv. red. Zaretskaya S.L. – M.: INION, 2001. – S. 21, 38.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 116 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 336 b.
6. Shomurotov S. S. O. (2021). The Need for Formation of Knowledge on the Effective Use of Water Resources in Young People in the Process of Globalization (in the Example of the Aral Sea). International Journal of Human Computing Studies, 3(2), 89–91.
7. Shomurotov S. S. O. (2021, April). FIRST STEPS FOR MODERNIZATION OF WATER FARMING IN THE REPUBLIC: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 152–155).
8. Shomurotov S. S. O. (2021, February). Some Environmental Problems Related To Land And Water Resources In Uzbekistan. In International Scientific and Current Research Conferences, pp. 39–41.
9. To'rayev A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: O'qituvchi, 2019. – 214 b.
10. Usmonov J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 180 b.
11. Yodgorov B. Ta'limda innovatsion yondashuvlar. – T.: Noshir, 2022. – 160 b.
12. Zaretskaya S. L. (red.). Globalizatsiya i obrazovanie. – M.: INION, 2001. – 120 b.